


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

  
i.f.d., prof. S. Mexmonov

“ 21 ” 07 2023-y.

TEXNIKUMLARNING “MOLIYA” O‘RTA MAXSUS  
PROFESSIONAL TA‘LIM MUTAXASSISLIGI BO‘YICHA  
BITIRUVCHILARINI 2023/2024 O‘QUV YILIDA SUHBAT  
ASOSIDA O‘QISHGA QABUL QILISH UCHUN SAVOLLAR

Mazkur savolnoma “Moliya” kafedrasining 2023-  
yil 4-iyuldagi 15-sonli yig‘ilishida muhokama  
qilingan va tasdiqlangan.

Kafedra mudiri  X. Qobulov

TOSHKENT - 2023

# TEXNIKUMLARNING “MOLIYA” O‘RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA’LIM MUTAXASSISLIGI BO‘YICHA BITIRUVCHILARINI 2023/2024 O‘QUV YILIDA SUHBAT ASOSIDA O‘QISHGA QABUL QILISH UCHUN SAVOLLAR

## I. Mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish

1. Iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanishda moliyaning o‘rni va ahamiyati
2. Iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanishda davlat moliya siyosatining asosiy yo‘nalishlari
3. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi nechta ustuvor yo‘nalishdan iborat?
4. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi nechta maqsadlarni o‘z ichiga oladi?
5. Taraqqiyot strategiyasida 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning necha foizidan necha foizi darajasiga kamaytirish belgilangan?
6. Taraqqiyot strategiyasining “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash” yo‘nalishi nechta maqsadlardan iborat?
7. Taraqqiyot strategiyasidagi “9-maqsad: “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hamda byurokraziyani bartaraf etish”ning mazmuni nimalardan iborat?
8. Taraqqiyot strategiyasidagi “13-maqsad: Mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash”ning mazmuni nimalardan iborat?
9. Taraqqiyot strategiyasidagi “21-maqsad: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish”ning mazmuni nimalardan iborat?
10. Taraqqiyot strategiyasidagi “22-maqsad: Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish”ning mazmuni nimalardan iborat?
11. Taraqqiyot strategiyasidagi “23-maqsad: Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg‘or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish”ning mazmuni nimalardan iborat?
12. Taraqqiyot strategiyasidagi “24-maqsad: Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta‘minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish”ning mazmuni nimalardan iborat?

13. Taraqqiyot strategiyasidagi “25-maqсад: Raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish”ning mazmuni nimalardan iborat?

14. Taraqqiyot strategiyasidagi “26-maqсад: Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko‘rish”ning mazmuni nimalardan iborat?

15. Taraqqiyot strategiyasidagi “27-maqсад: Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish”ning mazmuni nimalardan iborat?

16. Taraqqiyot strategiyasidagi “28-maqсад: Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish”ning mazmuni nimalardan iborat?

17. Taraqqiyot strategiyasidagi “29-maqсад: Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususi sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish”ning mazmuni nimalardan iborat?

18. Taraqqiyot strategiyasidagi “30-maqсад: Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘shishini kamida 5 foizga yetkazish”ning mazmuni nimalardan iborat?

19. Taraqqiyot strategiyasidagi “31-maqсад: Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo‘yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish”ning mazmuni nimalardan iborat?

20. Taraqqiyot strategiyasidagi “32-maqсад: Chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5 — 2 baravar ko‘paytirish”ning mazmuni nimalardan iborat?

21. Taraqqiyot strategiyasidagi “33-maqсад: Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4 — 1,6 baravarga oshirish”ning mazmuni nimalardan iborat?

22. Taraqqiyot strategiyasidagi “34-maqсад: Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish”ning mazmuni nimalardan iborat?

23. Taraqqiyot strategiyasidagi “35-maqсад: “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish”ning mazmuni nimalardan iborat?

24. Taraqqiyot strategiyasidagi “36-maqсад: Barcha transport turlarini uzviy bog‘lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o‘rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish”ning mazmuni nimalardan iborat?

25. Taraqqiyot strategiyasida oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini necha foizga etkazish va ta‘lim sifatini oshirish nazarda tutilgan?

26. 2023-yilda yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini necha foizga etkazish nazarda tutilgan?

27. Taraqqiyot strategiyasida Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish bo'yicha nazarda tutilgan chora-tadbirlar nimalardan iborat?

28. Taraqqiyot strategiyasi va uni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturini moliyalashtirish manbalari nimalardan iborat?

29. «Ijtimoiy himoya yagona reestri» axborot tizimi haqida nimalarni bilasiz, ushbu tizim ijtimoiy siyosatning qanday yo'nalishlariga xizmat qiladi?

30. "Temir daftar" haqida nimalarni bilasiz, u ijtimoiy siyosatning qanday yo'nalishlariga xizmat qiladi?

31. "Yoshlar daftari" haqida nimalarni bilasiz, u ijtimoiy siyosatning qanday yo'nalishlariga xizmat qiladi?

32. "Ayollar daftari" haqida nimalarni bilasiz, u ijtimoiy siyosatning qanday yo'nalishlariga xizmat qiladi?

33. Aholini manzilli ijtimoiy himoya qilish davlat dasturlarini moliyaviy ta'minlash manbalari nimalardan iborat?

34. 2023-yil uchun soliq-bojxona siyosatining asosiy yo'nalishlari o'z tarkibiga nimalarni oladi?

35. Soliq yuki haqida nimalarni bilasiz?

36. 2023-yilda iqtisodiyotga soliq yuki darajasi qancha miqdorda prognoz qilinmoqda?

37. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimiga qanday muassasalar kiradi, ular faoliyatini moliyaviy ta'minlash manbalari nimalardan iborat?

38. "Ochiq byudjet" portali haqida nimalarni bilasiz?

39. Tashabbusli byudjetlashtirish tamoyilining mazmuni nimadan iborat?

40. Taraqqiyot strategiyasidagi "40-maqсад: Maktabgacha ta'lim tizimida budjet mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash"ning mazmuni nimalardan iborat?

41. Taraqqiyot strategiyasidagi "43-maqсад: Malakali o'qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish"ning mazmuni nimalardan iborat?

42. Taraqqiyot strategiyasidagi "46-maqсад: Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish"ning mazmuni nimalardan iborat?

43. Taraqqiyot strategiyasidagi "50-maqсад: "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o'qishga yuborish ko'lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o'qitish"ning mazmuni nimalardan iborat?

44. Taraqqiyot strategiyasidagi "51-maqсад: Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonolari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish"ning mazmuni nimalardan iborat?

45. Taraqqiyot strategiyasidagi "52-maqсад: Global innovatsion indeksda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish"ning mazmuni nimalardan iborat?

46. Taraqqiyot strategiyasidagi "53-maqсад: Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish"ning mazmuni nimalardan iborat?

47. Taraqqiyot strategiyasidagi “54-maqсад: Pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirish”ning mazmuni nimalardan iborat?

48. Taraqqiyot strategiyasidagi “56-maqсад: Aholiga ko’rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budget mablag’laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug’urtalash amaliyotini joriy qilish”ning mazmuni nimalardan iborat?

49. Taraqqiyot strategiyasidagi “59-maqсад: Birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko’rsatish sifatini yaxshilash, sohaga ajratiladigan mablag’larni oshirish”ning mazmuni nimalardan iborat?

50. Taraqqiyot strategiyasidagi “65-maqсад: Malakali shifokorlarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish”ning mazmuni nimalardan iborat?

51. Taraqqiyot strategiyasidagi “69-maqсад: Xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash”ning mazmuni nimalardan iborat?

52. Taraqqiyot strategiyasidagi “70-maqсад: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish”ning mazmuni nimalardan iborat?

53. Taraqqiyot strategiyasidagi “71-maqсад: Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” g’oyasini keng targ’ib etish orqali jamiyatda sog’lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish”ning mazmuni nimalardan iborat?

54. Taraqqiyot strategiyasidagi “85-maqсад: Mamlakatda yangi ish o’rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag’allikni kamida 2 baravarga qisqartirish”ning mazmuni nimalardan iborat?

55. Taraqqiyot strategiyasidagi “95-maqсад: An’anaviy hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratib, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish”ning mazmuni nimalardan iborat?

56. Taraqqiyot strategiyasidagi “96-maqсад: O’zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatini kuchaytirish”ning mazmuni nimalardan iborat?

57. Taraqqiyot strategiyasidagi “97-maqсад: Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo’lish va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish”ning mazmuni nimalardan iborat?

58. Bugungi kunda olib borilayotgan byudjet-soliq siyosatini izohlab bering.

59. 2023-yilga “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb nom berilishi zamirida qanday maqsadlar yotadi?

60. Yangi O’zbekiston siyosatida “eng yaxshi investitsiya – ta’limga qilingan investitsiya” g’oyasining mazmunini siz qanday tushunasiz?

## **II. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)**

1. Moliya institutini tanlashdan maqsad.
2. Toshkent moliya institutning shuhrati va nufuzi haqida nimalarni bilasiz?
3. Ta'limning yuqori sifati, o'qituvchilarning kasbiy mahorati qanaqa bo'lishini xohlaysiz?
4. Siz tanlagan ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qishni tugatgandan so'ng muvaffaqiyatli ishga joylash imkoniyatlaringizni qanday baholaysiz?
5. Xalqaro stajirovka va amaliyotlar ahamiyati nimada deb o'ylaysiz?
6. Innovatsion va istiqbolli oliy ta'lim olish deganda nimalarni tushunasiz?
7. Sizing sifati ta'lim olishingizda eng zamonaviy jihozlar hamda moddiy-texnikalarning ahamiyati bormi?
8. Nima uchun aynan "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" ta'lim yo'nalishini tanladingiz?
9. Bakalavriatda tahsil oladigan talaba uchun ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanish qanchalik muhim?
10. Iqtisodiyot va moliyaning o'zaro bog'liqligi va farqli jihatlari
11. Moliyaviy savodxonlikda jamg'arish muhimmi yoki to'g'ri sarflash?
12. Tadbirkorlik subyektini boshlash sizningcha qanday amalga oshiriladi?
13. Nima uchun biznes reja tuziladi?
14. Agar sizda 5000 AQSh dollari bo'lganda uni qanday sarflagan bo'lar edingiz?
15. Agar sizda mablag' bo'lsa uni jamg'armaga (bankka yoki investitsion fondga) qo'ygan bo'larmidingiz yoki o'z biznesingizni boshlarmidingiz? (nimaga javobingizni asoslab bering)
16. Moliya deganda ko'z oldingizga nima keladi? Uni qanday tushunchalar bilan bog'laysiz?
17. Maqsadni belgilashda nimalarga e'tibor qaratish kerak?
18. Moliya mexanizmi tarkibi nimalardan iborat ekanligiga to'xtaling
19. Pul va uning turlari aytib bering
20. Korxonangiz yil yakuni bo'yicha balansi zarar bilan chiqdi, bunday holatda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?
21. Korxonangiz qo'shimcha daromadini zaxira (korxonada takibidagi) fondiga yuborarmidingiz yoki investitsiya qilishga yo'naltirarmidingiz? Javobingizni asoslab bering.
22. Moliya sohasida risk tushunchasini qanday tushunasiz?
23. Korxonalarning soliq to'lashlari nima uchun muhim?
24. Iqtisodiyot va moliya vazirligining davlat iqtisodiyotini boshqarishdagi ahamiyati qanday?
25. Markaziy bank qanday funksiyani bajaradi?
26. Soliqlar davlatning funksiyalarini bajarishda nima vazifani bajaradi?
27. Byudjet taqchilligi nima uchun hosil bo'ladi va uni qanday bartaraf etish mumkin?
28. Davlatning iqtisodiyoti uchun (normadan oshmagan holda) byudjet taqchilligi, profitsit (ortiqcha) yoki balans holati yaxshimi? Nima uchun?

29. Pensiya va nafaqalar qanday belgilanadi?
30. Davlat soliq qo‘mitasining vazafalari nimadan iborat?
31. Korxonada moliyachining roli nimalardan iborat hisoblanadi?
32. Kredit, ssuda va investitsiyaning farqi, o‘xshashliklari nimalardan iborat?
33. Bugungi kundagi valyuta kurslarining tebranishi nimalarga bog‘liq?
34. Dunyoda sodir bo‘layotgan iqtisodiy-siyosiy jarayonlar bitta kichik korxonada moliyaviy-iqtisodiy faoliyatiga qanday ta’sir qiladi?
35. Yirik investorlar davlat iqtisodiyotiga ta’sir eta oladimi? Nimaga?
36. Qanday xorijiy korporatsiyalarning O‘zbekistondagi filiallarini bilasiz? Ularning faoliyati qanday?
37. Bankka omonatga pul qo‘yilganda (bank uchun va omonatchi uchun) uning foizi optimal bo‘lishi uchun qanday bo‘ladi?
38. Lotereyada katta pul yutib olsangiz uni qanday sarflagan bo‘lar edingiz?
39. Korxonangiz bankrot holatga tushib qolsa, qanday qilib bu xolatdan chiqib ketar edingiz?
40. Agar 2009-yilga kaytib qolganingizda Bitcoin (1\$=1300Ѓ) sotib olgan bo‘larmidingiz? Javobingizni asoslab bering!
41. Islom banklari tashkil etilishi tadbirkorlik subyektlariga qanday ta’sir etadi?
42. Pandemiya davlatlar iqtisodiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
43. O‘zbekiston fond bozoridagi qaysi kompaniyalar aksiyalarini olgan bo‘lar edingiz?
44. Xalqaro moliya bozorida qaysi indekslarni bilasiz va ular nimani anglatadi?
45. Siz tanigan va hurmat qilgan mashhur tadbirkor kim? Nima uchun uni hurmat qilasiz?
46. Biznesga oid qanday kitoblarni o‘qigansiz va nima xulosaga kelgansiz?
47. Sizing fikringizcha O‘zbekistonda eng doromadli soha qaysi?
48. Aktiv daromad bilan passiv daromadning nima farqi bor?
49. Sizingcha aktiv daromad olib pul topgan yaxshimi yoki passiv daromad olgan yaxshimi?
50. Bugungi kunda qaysi sohaga tikilgan investitsiya kelajakda katta daromad keltiradi?
51. Fikringizcha O‘zbekistonda qaysi sohani rivojlantirish muhim ahamiyatga ega?
52. Biror sohaga investitsiya kiritmoqchisiz. Uning ishonchliligini qanday aniqlaysiz?
53. O‘zbekistonda moliya sohasiga raqobat muhiti qanday shakllangan?
54. Monopoliya hamda oligopoliya orasida nima o‘xshashlik va farqlar mavjud?
55. Investitsiya kiritishda nimalarga ahamiyat qaratish kerak?
56. Sarmoya kiritilayotganda sarmoyadorga qaytayotgan foizlari uchun inflyatsiyaning ahamiyati qanday?
57. Tovarining narxiga qanday faktorlar ta’sir etadi?
58. Talab va taklif nimalarga bog‘liq?
59. Oliy ma’lumot olganingizdan so‘ng Vatan taraqqiyotiga qanday hissa qo‘sha olaman deb o‘ylaysiz?
60. Jahonga mashhur qaysi zamonaviy iqtisodchilarni bilasiz?

### **III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o‘qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas’uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliatlari)**

1. Korxonada xodimning kasbiy fazilatlari va shaxsiy fazilatlari o‘rtasidagi farq nimada?
2. Insonning qanday kasbiy fazilatlari mavjud?
3. Xodimning kasbiy fazilatlari turli sohalarda turlicha bo‘ladimi?
4. Korxonada xodimning ichki tartib-qoidalarga rioya etishi qanchalik muhim?
5. Korxonada yoki tashkilotda xodimning qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi qanday?
6. Korxonada yoki tashkilotda xodimning shaxsiy yutuqlari mavjudligi qanchalik muhim?
7. Korxonada yoki tashkilotda xodimning o‘z ustida ishlashi qanchalik muhim?
8. Korxonada yoki tashkilotda xodimning ijodkorlik qobiliyati bo‘lishi muhimmi?
9. Korxonada yoki tashkilotda xodimning intizomlilik xususiyati qanchalik muhim?
10. Korxonada yoki tashkilotda xodimning o‘qishga qobiliyatlilik qanchalik muhim?
11. Korxonada yoki tashkilotda xodimning kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyati qanchalik muhim?
12. Korxonada yoki tashkilotda xodimning hamjihatlilik hususiyati qanchalik muhim?
13. Korxonada yoki tashkilotda xodimning mas’uliyatlilik hususiyati qanchalik muhim?
14. Korxonada yoki tashkilotda xodimning intizomlilik hususiyati qanchalik muhim?
15. Moliyaviy savodxonlik nima?
16. Hissiy intellekt nima?
17. Kreativlik nima?
18. Qanday kasbiy fazilatlar maqsadga erishishga yordam beradi?
19. Moslashuvchanlik xodim uchun muhimmi?
20. Xushmuomalalik xodim uchun muhimmi?
21. Xayrixohlik xodim uchun muhimmi?
22. Muloyimlik xodim uchun muhimmi?
23. Mantiqiy fikrlash xodim uchun muhimmi?
24. Yetakchilik xodim uchun muhimmi?
25. Mehnatsevarlik xodim uchun muhimmi?
26. Tashabbuskorlik xodim uchun muhimmi?
27. Strategik fikrlash xodim uchun muhimmi?
28. Stressga chidamli bo‘lish xodim uchun muhimmi?
29. Faollik xodim uchun muhimmi?
30. Ratsional fikrlash xodim uchun muhimmi?
31. Yetakchi menedjerdan nimasi bilan farq qiladi?



32. Kasbiy ko'nikmalar va fazilatlar qanday shakllantiriladi?
33. Menejerlik kasbi haqida nimalar bilasiz?
34. Inson uchun kasb tanlash qanchalik muhim hisoblanadi?
35. Kasbiy faoliyatda o'z nuqtai nazarini himoya qilish qobiliyatining ahamiyati nimada?
36. Kasbiy muvaffaqiyatlarga erishishda mas'uliyatlilik qanchalik muhim?
37. Kasbiy muvaffaqiyatlarga erishishda tartiblilik qanchalik muhim?
38. Mehnat jamoasi orasida obro'-etiborga erishishda odob-ahloq va yaxshi xulq-atvorning o'rni
39. Hazilkashlik tuyg'usi ega bo'lish jamoada o'z o'rnini topishga qanday ta'sir qilishi mumkin?
40. Axborot bilan ishlash qobiliyati deganda nimani tushunasiz?
41. Kasbiy muvaffaqiyatlarga erishishda o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj.
42. Ochuqur mulohazali, oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyatining ahamiyati.
43. Mehnat jamoasi bilan munosabatlarda o'z-o'zini nazorat qila olish qobiliyati.
44. Kasbiy faoliyatda kreativlikning o'rni va ahamiyati.
45. Mas'uliyatlilik haqida tushuncha.
46. Mustaqil fikrlay olishning ahamiyati.
47. Kasbiy halollik (rostgo'ylik, samimiylilik) deganda nimalarni tushunasiz?
48. Kasbiy o'sishga intiluvchanlik
49. Ishdagi samaradorlik (mehnatga layoqatlilik).
50. Kasbiy o'sishda ta'limning ahamiyati.

#### **IV. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi**

1. Moliya so'zining ma'nosini aytib bering
2. "Moliya" atamasining kelib chiqishi xususida iqtisodiy adabiyotlarda qanday qarashlar mavjud?
3. Davlat moliyasi deganda nima tushuniladi?
4. Davlat resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonini tushuntiring
5. Moliyaviy resurslar o'zida nimalarni mujassamlashtiradi?
6. Moliya qanday funksiyalarni bajaradi?
7. Moliyani vujudga kelishi qaysi asrlarga to'g'ri keladi?
8. "Respublika xususida olti kitob" asarining muallifi kim?
9. "Respublika xususida olti kitob" asari qachon nashr etilgan?
10. "Moliya" atamasi qaysi tildan olingan?
11. "Moliya" fanining asoschisi kim?
12. "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot" deb nomlangan fundamental asarining muallifi kim?
13. Bevosita kapitalga almashtiriladigan mehnat nima deb ataladi?
14. Daromadga, ya'ni ish haqi va foydaga almashtiriladigan mehnat nima deb ataladi?

15. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qanday vazifalarni bajaradi?
16. O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.Vahobov va T.Malikovning fikriga ko‘ra “moliya” so‘zining ma’nosini keltiring
17. Markazlashgan moliya deganda nima tushuniladi?
18. Markazlashmagan moliya deganda nima tushuniladi?
19. Tijoratga asoslangan korxonalarining asosiy maqsadini ayting
20. Korporativ moliyaga ta’rif bering
21. Moliyaning nazorat funksiyasini tushuntiring
22. Moliyaning taqsimlash funksiyasini tushuntiring
23. Kredit tashkiloti deganda qanday tashkilotlar tushuniladi?
24. Nodavlat-notijorat tashkilotlarining mablag‘lari manbasini ayting
25. Nodavlat-notijorat tashkilotlariga misol keltiring
26. Moliyaviy xizmatlar deganda nima tushiniladi?
27. Bank operatsiyalari deganda nima tushiniladi?
28. Sug‘urtaga ta’rif bering
29. Sug‘urta qanday funksiyalarni bajaradi?
30. Investitsiya va kapitalni farqlang
31. Yuridik shaxs tushunchasiga ta’rif bering
32. Byudjet tashkiloti deganda qanday tashkilot tushuniladi?
33. Byudjet so‘zining ma’nosini ayting
34. Davlat byudjeti qanday funksiyalarni bajaradi?
35. Davlat byudjetining nazorat funksiyasini tushuntiring
36. Moliyaviy xizmat turlaridan biri bo‘lgan lizingni tushuntiring
37. Faktoring operatsiyasiga ta’rif bering
38. Soliqqa ta’rif bering
39. Soliqlarning belgilarini ayting
40. Bevosita soliq deganda qaysi soliqlar tushuniladi?
41. Bilvosita soliq deganda qaysi soliqlar tushuniladi?
42. Davlat byudjetining tarkibini ayting
43. Mahalliy byudjetga ta’rif bering
44. Qimmatli qog‘oz turlarini ayting
45. Biznes-rejaning tuzilishi
46. “Moliya” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlashning iqtisodiyot uchun zarurligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
47. “Moliya” fani boshqa iqtisodiy fanlar bilan qanday bog‘langan?
48. Moliya organlari deganda nimani tushunasiz?
49. Soliq turlarini sanang
50. Moliya ilmi nimani o‘rganadi?
51. Moliyani o‘rganishning zarurligi nimada?
52. “Moliya” tushunchasi qanday munosabatlarni bildiradi?
53. Moliya kategoriyasining rivojlanish tarixini tushuntirib bering.
54. Moliyaning asosiy belgilari nimalardan iborat?
55. Moliyaga qanday ta’riflar berish mumkin?
56. Moliyaning rivojlanishini qanday bosqichlarga bo‘lish mumkin?
57. Moliyaning obyektiv zarurligi nimadan iborat?

58. Moliya qanday funksiyalarni bajaradi?
59. Moliyaning nazorat funksiyasi obyekti nimalar hisoblanadi?
60. nimalardan iborat?
61. Yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni taqsimlash jarayonida moliyaning boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan bog‘liqligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
62. Bozor islohotlari sharoitida moliya, kredit, baho va ish haqi kategoriyalari amal qilishida qanday xususiyatlar mavjud?
63. Moliya munosabatlarida baho qanday ahamiyat kasb etadi?
64. Moliya va kreditning farqlari nimada? Iqtisodiy ta’limotlarning zamonaviy tarixini o‘rganishga qiziqishning ortishiga asosiy sabablar nimalar hisoblanadi?
65. XVI-XX asrlar moliya ilmining rivojlanish yo‘nalishlari qanday omillar bilan belgilanadi?
66. Moliyaga bag‘ishlangan birinchi asarning muallifi kim bo‘lgan va bu asar qanday nomlangan?
67. G‘arbning iqtisodiy modeli tarixidagi keynschilik “burilishi”ning mohiyati nimada?
68. Moliya ilmi tarixiga A.Smitning qo‘shgan xissasini tushuntirib bering.
69. Moliya tizimini nimalar tashkil qiladi?
70. Moliya tizimining bo‘g‘inlari o‘z navbatida qanday quyi bo‘g‘inlarga bo‘linadi?

**“Moliya” kafedrasi mudiri**

**X. Qobulov**